

OLIY TA'LIMDA TA'LIM VA TARBIYA SIFATINI OSHIRISHNING  
PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Xudoyberdiyeva Mu'azamxon Abdumuminovna

Namangan "University Of Business And Science"

4-bosqich talabasi,

Paxtaobod pedagogika kolleji

Maktabgacha ta'lim psixologiyasi fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiyaning tubdan o'zgartirish, uni xalqaro standartlarga integratsiyalash, mehnat bozori talabiga mos yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bo'yicha hayotga tatbiq etilayotgan islohotlar, pedagoglarning kasbiy mahorati hamda pedagoglarning kasbiy kompetensiyasining ahamiyati haqida fikr bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** xalqaro standart, pedagoglarning kasbiy mahorati, pedagoglarning kasbiy kompetensiyasi, malakali mutaxassis, kasbiy malaka talablari, Ijtimoiy hamkorlik.

**Аннотация:** В данной статье высказывается мнение о кардинальной трансформации образования в высших учебных заведениях, его интеграции в международные стандарты, о проводимых реформах по подготовке высококвалифицированных специалистов, соответствующих требованиям рынка труда, о профессиональном мастерстве педагогов и важности профессиональной компетентности педагогов.

**Ключевые слова:** международный стандарт, профессионализм педагогов, профессиональная компетентность педагогов, квалифицированный специалист, требования к профессиональной квалификации, социальное сотрудничество.

**Annotation:** This article reflects on the fundamental transformation of education in higher educational institutions, its integration into international standards, the implementation of reforms in the training of highly qualified specialist personnel in accordance with the demand of the labor market, the professional skills of educators and the importance of professional competence of educators.

**Keywords:** international standard, professional skills of educators, professional competence of educators, qualified specialist, professional qualification requirements, social cooperation.

Mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiya ekanligi isbot talab qilmas haqiqatdir. Bugun mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrab olinishini yanada kengaytirish, ularni bilim va malakali etib tarbiyalash, jahon taraqqiyotiga mos mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan. Yangi O'zbekistonga ilm-fanga e'tibor yuqori cho'qqiga chiqqani bejiz emas. Chunki hozir zamonaviy hayotni ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Jahonning yetakchi davlatlarida ham ta'limni rivojlantirish birinchi galdeg'i vazifa sifatida belgilanmoqda. Zero, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

qo‘lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Albatta, mamlakatimiz ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirish, uni xalqaro standartlarga integratsiyalash, mehnat bozori talabiga mos yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bo‘yicha hayotga tatbiq etilayotgan islohotlar e’tiborga molik. Lekin shunga qaramay, sifat borasida o‘zgarishlar hali-hamon sezilmayapti. Demak, endi oliv ma’lumotli kadrlarni tayyorlashning maqsadli mezonlarini shakllantirish, oliv ta’lim muassasalaridagi ixtisoslik yo‘nalishlari, mutaxassisliklarni hududlar, sohalar bo‘yicha joriy etilayotgan dasturlarning talab va ehtiyojlarini inobatga olish lozim.

Pedagogika ta’lim sohasi ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassislarni tayyorlash oliv ta’lim muassasalarida tizimli tarzda amalga oshiriladi. o‘quv-tarbiya jarayonini xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, bandligini ta’minalash, kasbga yo‘naltirish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish ta’lim jarayoni sifatini oshiradi. Oly ta’lim muassasalarining maqsadi tayyorlanayotgan pedagog kadrlarning kasbiy malaka talablarini va ta’lim jarayoni subektlari hamda nazaraiya va amaliyot uyg‘unligini ta’minalash orqali ta’lim bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdan iborat ekanligi hech kimga sir emas.

Oly ta’lim muassasalarining mehnat bozori subyektlari va institutlari, davlat, viloyat va mahalliy hokimiyat organlari, jamoatchilik tashkilotlari bilan o‘zaro integratsiya qilinishi alohida ahamiyat kasb etib, ushbu jarayonning barcha ishtirokchilarining manfaatlarini muvofiqlashtirishdan iborat.

Demak, kasbga yo‘naltirilgan pedagogik ta’lim sohasida ijtimoiy hamkorlik - bo‘lajak ish beruvchilar, oliv ta’lim muassasalari va boshqa tashkilotlar vakillari hamkorlarning mintaqada ta’limning barqaror rivojlanishi yo‘lidagi say-harakatlarini birlashtirish maqsadida ilm-fan rivoji yo‘lidagi o‘zaro foydali manfaatlariga, konstruktiv va uzoq muddatga mo‘ljallangan strategik rejalar jamlanmasidir.

Fanlar bo‘yicha pedagoglarning kasbiy mahoratini uzluksiz oshirib borishda

oliv pedagogik ta’limning hududlarda ijtimoiy hamkorlik munosabatlarini rivojlantirishdagi rolini tushunish muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu sababdan, oliv ta’lim muassasalari ma’muriyat siyosatini belgilaydigan asosiy tushuncha ehtimoliy ish beruvchilar, oliv ta’lim muassasalari, hukumat va boshqa tashkilotlarning organlarning o‘zaro foydali, konstruktiv va uzoq muddatga mo‘ljallangan, ushbu ijtimoiy hamkorlarning oliv pedagogik ta’lim sohasidagi umumiyl manfaatlari va ehtiyojlariga, barqaror rivojlanish yo‘lidagi sayharakatlarni birlashtirish maqsadida resurslarning to‘plashga, zarur meyoriyuquqiy bazasiga ega birgalikda rivojlantirilgan qoidalar va kelishuvlarga rioya qilishga asoslangan o‘zaro faoliyati tizimi asosida quriladigan dunyoqarashning, mafkuraning o‘ziga xos turi deb talqin qilinadigan “Ijtimoiy hamkorlik” bo‘lishi zarur.

Bo‘lajak pedagoglarni ijtimoiy hamkorlik asosida kasbga samarali tayyorlash oliv ta’lim muassasalarining rolini mintaqaning rivojlanish ishlarida oshirishni va uning turli-tuman ijtimoiy subektlar bilan oliv pedagogik ta’limning rivojlanish an’analarini hisobga olgan holda har tomonlama o‘zaro faoliyatini taqozo etadi. Pedagogik kadrlarni ijtimoiy hamkorlik doirasida kasbga tayyorlashni tashqi va ichki o‘zaro munosabatlar nuqtayi

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

nazaridan o‘rganish mumkin. Hukumat organlari bilan ishlashda universitet ikki tomonlama foydali hamkorlik strategiyasini tanladi[1;49].

Ijtimoiy hamkorlik asosida kasbiy tayyorlash, kasbiy ta’limni amalga oshirish universitetning ichki ta’lim makonida ham amalga oshirilmoqda. Buning uchun quyidagi o‘zaro hamkorlik shakllari qo‘llanilmoqda: kasbga tayyorlashning mazmunini tezkor isloh qilish imkonini beruvchi malaka talablarini hisobga olgan holda akademik fanlar mazmunini birqalikda loyihalash, kafedralar muhokamalarida, turli muammolarga bag‘ishlangan qo‘shma seminarlarda, ilmiyamaliy va metodik anjumanlarda innovatsion texnologiyalarni joriy qilish imkonini beruvchi muntazam muhokamalar o‘tkazish; litsey va pedagogik sinflar o‘quvchilari hamda talabalar uchun o‘quv kurslari mazmunini optimal o‘zlashtirish imkonini beruvchi qo‘shma o‘quv va o‘quv-metodik qo‘llanmalarini nashr qilish; (o‘quvchilar va talabalar uchun) umumiy o‘quv va ishlab chiqarish amaliyotlarini, tijorat o‘yinlari, muammoli seminarlar, ijodiy faoliyotni, tadqiqotchilik xislatlarini rivojlantirish, kasbiy faoliyatga yaqinlashtirilgan faoliyatda olingan bilimlarni mustahkamlash va mashq qilish; universitet o‘qituvchilari o‘tkazadigan, talabalarning raqobatbardosh kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradigan oraliq reyting nazorati. Ijtimoiy hamkorlik asosida ichki o‘zaro faoliyatni amalga oshirishning obektlari talabalar hisoblanadi.

Ushbu yo‘nalishdagi ishlar umumta’lim maktablari o‘qituvchilarining o‘zlarini o‘qitayotgan fanning nazariyasi va metodikasiga oid bilimlarini oshirish, amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishga oid metod va usullar bilan tanishtirish, fannlar bo‘yicha yaratilgan metodik qo‘llanmalar, resurslardan o‘quv jarayonida samarali foydalanishlariga yordam berish, o‘qituvchilarni attestatsiyadan o‘tishga tayyorlash, shuningdek, ularning doimiy tarzda mustaqil ta’lim olishlarini yulga qo‘yish, fan o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini uzluksiz oshirib borish bo‘yicha metodistlar tomonidan harakatdagi o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish maqsadida tashkil etiladi[2;247].

O‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy kompetentligini uzluksiz oshirib borishning quyidagi jihatlariga e’tibor qaratish nazardautiladi:

- Davlat ta’lim standarti, o‘quv reja va dasturlari bilan ishlay olish, yangi yaratilayotgan adabiyotlar asosida darslarni tashkil etish;
- dars mavzulariga mos o‘qitishning zamonaviy usullari, metodlarini tanlash;
- axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish, mavjud multimedia materiallarini qo‘llash va yangilarini yaratish;
- o‘quv-laboratoriya jihozlarini saqlash, ularning o‘rnini to‘ldirib borish;
- laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarni bajarish ko‘nikma, malakalarini oshirish;
- “Bilimlar bellashuvi”, olimpiada, monitoring natijalari asosidagi bo‘shliqlarni to‘ldirish;
- o‘quv dasturi asosidagi masala-mashq, topshiriklarni sodda va qulay usullarda bajarish ustida ishslash[3];



1555

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Xulosa qilib aytganda ta'lif xodimlarining professionallashuviga zamonaviy jamiyat talablarining obyektiv sur'atlarda hamda professionallashishning zaruriy darajasiga etishish uchun uzlukssiz kasbiy o'sishi zarur. Kasbiy, shaxsiy kompetentlik kabi tushunchalarni o'zida mujassam etgan zamonaviy pedagogning kasbiy yetuklashuvini uzlucksiz olib borgan samara beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ismailova Z.K. Ta'lif sifatini oshirishda pedagog kompetentligini rivojlantirish omillari. "O'zbekiston oliy ta'lif muassasalarida pedagogik kadrlarning malaka oshirish tizimi: tajribasi, muammolari va rivojlanish perspektivasi" II xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tezislari va ma'ruzalar to'plami.
2. A. I. Avazboyev [va boshq.]. Kasbiy pedagogika/ O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi - T.: Cho'pon nomidagi NM1U, 2014. 320 b. ISBN 978-9943-05-692-3.247-b.
3. Abduraxmonova Sayyoraxan Shaxobidinovna "Professional training as a factor of professional skills improvement of future teachers" International Journal of Pedagogics (ISSN – 2771-2281) VOLUME 02 ISSUE 11 Pages: 01-07 SJIF IMPACT FACTOR (2021: 5. 705) (2022: 5. 705) OCLC – 1121105677 METADATA IF – 5.689.
4. Yakubjonovna, N. M., & Shamsitdinovna, M. A. (2024). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI PEDAGOGIK KOMPETENTLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK USULLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 47(3), 105-110.
5. Yakubjonovna, N. M., & Farhod og'li, X. A. (2024). YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA OILA, MAHALLA VA MAKTAB HAMKORLIGIDA O'QITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLIGINI OSHIRISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 47(3), 149-153.
6. Jurayev, X. O. (2023). O 'smirlarda xarakter aksentuatsiyasi tiplarining deviand xulq-atvor shakllanishiga ta'sirining psixologik mexanizmlari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(9), 560-569.